

**ROSSIYANING YEVROSIYOCHILIK KONSEPSIYASI:
TURK MANBALARI TALQINIDA**

Muxtor Nazirov¹

¹ O'zbekiston xalqaro islam akademiasi dotsenti, PhD

Javoxir Dalimirzayev¹

¹ O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi,
1-kurs magistranti

**MAQOLA
MALUMOTI:**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 28.12.2024

Revised: 29.12.2024

Accepted: 30.12.2024

KALIT SO'ZLAR:

Dugin, yevrosiyochilik, mafkura, Rossiya tashqi siyosati, tarixiy ildizlar, geografik chegaralar, madaniy aspektlar, ko'p qutbli dunyo tartiboti

Mazkur maqolada Rossiyaning "yevrosiyochilik" konsepsiyasi va uning turli tarixiy davrlardagi rivojlanish yo'llari tahlil qilinadi. G'arb gegemonligiga qarshi ko'p qutbli dunyo tartibotini ilgari surish kontekstida Rossiyaning ichki va tashqi siyosatida "yevrosiyochilik" vektorining ustuvor ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilgan.

KIRISH. Yevrosiyochilik bugungi kunda ko'p qo'llanilayotgan atama bo'lsa-da, uning kelib chiqish tarixi deyarli bir asr oldinga borib taqaladi. Garchi bu konsepsiya nazarda tutgan geografiya sifatida ba'zan Sharqdan G'arbgacha cho'zilgan hududlar, ba'zan esa Rossiyaning hozirgi hududi nazarda tutilsa-da, unda mayjud bo'lgan ma'no va paydo bo'lganidan buyon unga berilgan qiymat juda katta.

Shuni aytish mumkinki, "yevrosiyochilik" ayniqsa Sovet Ittifoqi paydo bo'lgandan keyin yaratila boshlangan va vaqt o'tishi bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy hudud sifatida maydonga chiqqan tushunchadir. Sovuq urushdan keyin xalqaro munosabatlarni muayyan geografik unsur va manbalar bilan izohlovchi yondashuv sifatida ushbu konsepsiyaga e'tibor so'nggi yillarda ba'zi mamlakatlarda, ayniqsa Rossiyada tobora ortib bormoqda. "Yevrosiyochilik" Sovuq urushdan keyingi davrda madaniy va tarixiy jihatdan muhim

elementlarga havolalar bilan, hozirda milliy va xalqaro siyosat talablariga muvofiq ko‘rilmoxda.

Manbalarda qayd etilganidek, yevrosiyochilik klassik va yangi davrga ega. Uning yangi talqini postsoviet davrida Rossiya o‘z kelajagi uchun muhim bo‘lgan, muqobil siyosiy va iqtisodiy yo‘lni belgilab, uning tashqi siyosatidagi ustuvor yo‘nalishidan biriga aylantirdi. Bu esa “yangi yevrosiyochilik” yondashuvining eng ko‘zga ko‘ringan targ‘ibotchilaridan biri – faylasuf Aleksandr Duginning Rossiya o‘z milliy manfaatlariga daxldor barcha mintaqaviy va global qarorlariga g‘oyaviy ta’siri oshganidan dalolatdir.

MUHOKAMA

Tarixga murojaat qilsak, “Yevrosiyo” tushunchasi ilk bora 1849 - yilda Aleksandr fon Humbold asarida Osiyo va Yevropa qit’alarini bir butun sifatida tasvirlash uchun ishlatalgan. Bu atama rus adabiyotiga geografik atama sifatida tarixchi V.Lamanskiy tomonidan kiritilgan. Geograf P.Savitskiy tomonidan berilgan ta’rifga ko‘ra, Yevrosiyo uchta katta tekislikni o‘z ichiga oladi. Bular O‘rtayer dengizi - Kavkaz mintaqasi, G‘arbiy Sibir va Turkistondir. [1]

Klassik yevroosiyochilik davrida Yevrosiyo deb ta’riflangan hudud sifatida asosan Podsho Rossiyasi chegaralari nazarda tutiladi. Savitskiyning talqini ushbu mintaqalarning iqlimiyligi va geografik elementlaridagi o‘xshashliklarni nazarda tutadi. Bu izohdan kelib chiqadiki, “yangi Yevrosiyo” g‘oyasi paydo bo‘lguniga qadar bu tushuncha Rossiya bilan bir ma’noda qo’llanilgan. Yangi yevrosiyochilik esa sobiq Sovet Ittifoqi hududlarini Yevrosiyo deb hisoblaydi. Mafkuraviy jihatdan u G‘arb gegemonligiga qarshilikni anglatadi. [2]

XXI asrning siyosiy tuzilishiga monand ravishda “yangi Yevrosiyo” g‘oyasining ta’rifi ham o‘zgarib bormoqda. Dugin tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiya ko‘ra, sobiq Sovet Ittifoqi hududi bilan birga Yevropaning markaziy qismini, Markaziy Osiyoning janubi va Tinch okeani mintaqasini, shu jumladan Xitoyni qamrab oladi. [2] Biroq, bu talqin Rossiya tashqi siyosati ta’sir o‘tkazmoqchi bo‘lgan chegaralarga qarab farq qilishi mumkin.

Albatta, klassik davrdagi yevrosiyochilarning holati va rivojlanish dinamikasini hisobga olsak, yevrosiyo ular uchun rus yerlari bilan cheklanishi tabiiy edi. Garchi bu kollektiv G‘arb tomonidan afzal ko‘rilmagan hukumat shakli bo‘lsa-da, sovuq urush davrida yillar davomida AQShga qarshi tura olgan sobiq Sovet Ittifoqi mavjud edi. Biroq, yangi yevrosiyochilik paydo bo‘lgan davrda xalqaro vaziyat ancha boshqacha edi. Endilikda Rossiya Federatsiyasi qanday boshqarilishi va qanday tashqi siyosat olib borishi borasida katta noaniqlik mavjud edi. Mamlakat kelajagi uchun real yondashish muhim edi, chunki

liberal-demokratik siyosatni amalga oshirishga bo‘lgan sa’y-harakat Rossiyani iqtisodiy jihatdan qulashiga olib kelgan edi. Qolaversa, xalqaro maydonda Rossiyaga nisbatan davlatlar o‘z geosiyosiy manfaatlarini afzal korib harakat qilardi. Shu sababli, Rossiya uchun ko‘proq birlashtiruvchi, ijtimoiy qadriyatlarga urg‘u beradigan, realistik va mamlakat manfaatlarini hisobga oladigan mafkura yaratish zarur edi.

Yevrosiyochilikning madaniy jihatlariga urg‘u bergen E.Bagramov yevrosiyochilikni belgilashda turk-musulmon ozchiligining ta’siri muhim bo‘lganini aytib, islom dinini pravoslav dini bilan solishtirishga harakat qilgan. Yana bir muallif O.Sulaymonov yevrosiyochilik adabiy ta’riflariga mos fikrlar bildirgan. Xuddi shu fikrga parallel ravishda rus, Markaziy Osiyo va Kavkaz adabiyotini bir markazga jamlashni maqsad qilgan fikrlar ham mayjud. [3]

NATIJALAR

Bolsheviklar inqilobi chorizmni ag‘dargandan so‘ng yuzaga kelgan notinch vaziyat ba’zilarni Sovet Ittifoqiga moslashishga majbur qilgan bo‘lsa, idealistlarning esa o‘z mamlakatini tark etishiga sabab bo‘ldi. [4] Muhojirlarning bilimi va ijtimoiy mavqeい, shuningdek, Rossiyaga bo‘lgan sadoqati haqidagi bayonotlarini [5] hisobga olsak, ular o‘z mamlakatlarining kelajagi haqida o‘ylash va yaxshiroq boshqaruvga ega bo‘lgan keljakni qurishga qodir ekanliklarini taxmin qilish mumkin. Aynan ular o‘z aqliy mehnatlari natijasida XXI asrda ham Rossiya siyosatiga ta’sir ko‘rsatgan “yevrosiyochilik” radikal yondashuvi asoslarini yaratdilar. Yevrosiyochilik madaniy, tarixiy, iqtisodiy, va boshqa turli xil ilmiy-nazariy yo‘nalishlarda rivojlanib bordi. Bu uni innovatsiyalarga moslashib, hozirgi kungacha saqlanib qolgan yondashuv deb talqin qilish mumkin.

1917-yilda bolsheviklar inqilobi bilan chor Rossiyasi parchalanib, uning o‘rnida Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi tashkil topdi. Tubdan o‘zgargan ma’muriy tuzum ittifoq doirasida qarama-qarshi g‘oyalarning yashashiga yo‘l qo‘yilmagani ko‘plab yangi tuzumga qarshi ziyoli qatlamning turli mamlakatlarga ko‘chib ketishiga olib keldi. Ular orasida oddiy fuqarolar bilan bir qatorda ilmiy sohada faoliyat yuritayotganlar, san’atkorlar, mutafakkirlar, tadbirkorlar va boshqa nufuzli shaxslar ham bor edi. Bu odamlarning ba’zilari eski boshqaruv shakli - monarxiyaning qaytishini istasa, ba’zilari na monarxiyani, na sotsializmni qo‘llab-quvvatlamas edi. Ba’zilar Rossiyaga G‘arb boshqaruv shakllari keladi, deb umid qilsa, boshqa bir idealist guruh Rossiya uchun boshqacha taqdir yaratilishi mumkin, deb hisoblardi. 1920-yilgacha uzluksiz davom etgan bu qochishning yo‘nalishi asosan Istanbul orqali Yevropa qit’asi tomon bo‘lgan. [1] Bir millionga yaqin ruslarning boshpana topishiga bu davrda eng ko‘p yordam bergen davlat Chexoslovakiya edi. [1]

Germanianing Sovet Ittifoqi bilan tuzgan kelishuvlaridan so'ng, Germaniyada qo'nim topgan ruslar Fransiyaga joylashishga majbur bo'ldilar va shu tariqa Fransiyada sezilarli darajada rus migrantlari jamoasi paydo bo'ldi.

Albatta, bolsheviklarni qo'llab-quvvatlamay, sotsializm tarafdori bo'lgan guruhlar ham bor edi. Bu g'oya tarafdorlarini ikki guruh holida Germaniya va Parijda ko'rish mumkin edi. Liberalizm tarafdorlari Rossiyani bolsheviklardan qurolli harakat bilan qutqarish kerak, deb hisoblashgan. Bu jarayonda 1921-yilda "Smenavexovchilar" harakati ham paydo bo'lib, bolsheviklar bilan murosa qilish va Rossiyaning rivojlanishi boshqa barcha masalalardan ustun ekanligini ta'kidlardilar.

Klassik yevrosiyochilikni Rossiya kelajagi uchun eng yaxshisini maqsad qilgan, dunyoning barcha tartiblaridan farqli ravishda yechim izlayotganlar tomonidan paydo bo'lgan g'oya sifatida talqin qilinishi mumkin. Rossiyada Yevropa davlatlari kabi individual markazlashtirilgan, moddiy va diniy yo'naltirilgan tuzilma yo'q. Rossiya va G'arb ikki qarama-qarshi qutbdir. G'arb bir qancha mustaqil davlatlardan iborat bo'lsa-da, birlashtirib turuvchi umumiy g'oyaviy va mafkuraviy ideallarga ega. Rossiya va yevrosiyochilik nazariyasi ilgari surayotgan g'oya nazarda tutayotgan geografiyada esa buning imkoni yo'q. Klassik yevrosiyochilar Aleksandr fon Gumboldt tomonidan fanga kiritilgan, butun Osiyo va Yevropa qit'alarini birlashtiradigan "Yevroсио" geografiyasini qabul qildilar.

Ushbu masalalar bo'yicha tadqiqot olib borgan P.Savitskiy o'zining "Географические особенности России" nomli asarida Yevroсио deb atalgan materikning geografik xususiyatlarini o'rganadi va ular orasidagi o'xshashliklarni topadi. Rossiyaning yer yuzasi shakllarida noaniqlik, geomorfologik zaiflik, botanika va tuproq turlarida gorizontal ravishda muntazam o'zgaruvchan mavjudligini ta'kidlar ekan, Yevropada bularning aksi ekanligini ham ta'kidlaydi. Uning so'zlariga ko'ra, Rossiya-Yevroсио bir butun ("месторазвитие"), geografik individual ("индивидуум") ularni bir-biridan ajratilgan deb hisoblash ilmiy emas, bu faqat G'arb manfaatlari uchun. [1]

Yevroсиoda aniqlangan bu umumiylig uni barcha turdag'i moddiy va ma'naviy resurslarga ega o'zini-o'zi ta'minlaydigan makonga aylantiradi. [2] Bu tushuntirishlar qatorida Savitskiy va N.Danilevskiy ham Ural tog'larining chegara sifatida qabul qilinishi ortida hech qanday geografik asos yo'qligini ta'kidlaydilar. Shuningdek, bu bo'linish Pyotr I davridagi rus yerlarini G'arbning bir qismi sifatida ko'rsatib, geografik birlik tuyg'usini yaratish maqsadida amalga oshirilgan g'arblashtirish harakatlariga hamohang bo'lganligi ta'kidlanadi. [6]

Madaniyatning turli jamiyatlarda va davrlarda shakllanganligini ta'kidlagan klassik yevrosiyochilar hech bir madaniyat boshqasidan kam yoki ustun bo'lishi mumkin emasligini aytadilar. N.Trubetskoy va G.Vernadskiyning madaniyat va tarixiy ildizlarga oid asarlari klassik yevrosiyochilikdan ilhom olganligini ko'rsatadi. Trubetskoy rus tarixinining ildizlarini Chingizxon imperiyasiga bog'laydi va vaqt o'tishi bilan Oltin O'rda davlati tuzilmasi Rossiyaga meros o'tganini aytadi. Uning ta'kidlashicha, islohotlar rus madaniyatiga mos kelmagan, bolsheviklar Rossianing tarixiy tuzilishiga mos kelmaydigan harakatlar bilan davlat tuzilishiga zarar yetkazgan. [1] Xuddi shunday, Vernadskiy Rossiya-Yevrosiyo o'sha davrda geografiyada hukmronlik qilgan mo'g'ullar ta'sirida vujudga kelganligini, davlat o'zining tabiiy chegaralariga chor davrida yetib kelganligini, ammo bu taraqqiyotga hozirgi davrda zarar yetganligini ta'kidlaydi.

Klassik yevrosiyochilar mo'g'ul ta'siri bilan bir qatorda turon unsurlari ham o'z madaniyatida slavyan unsurlari kabi ta'sirga ega ekanligini qabul qiladilar. Trubetskoyning aytishicha, ruslarning yozma va og'zaki an'analarini va til tuzilmalarida turoniylar elementlarning mavjudligi aniq ko'rindi. [1] Vernadskiy esa Yevrosoyo an'analarida nafaqat rus-slavyan madaniyati, balki keng qamrovli Yevrosoyo madaniyati ham o'z ta'siriga ega ekanligini va bu sintezda barcha turk, mo'g'ul, fin va slavyan qadriyatlari namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. [7]

Bolsheviklar inqilobi Rossiyaga olib kelgan notinch jarayon kabi Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin ham inqilobiy davdagiga o'xshash jarayonga kirdi, chunki o'zining mavjudligi uchun qilgan sa'y-harakatlari samara bermadi. Bu jarayonda Rossianing kelajagini uning tarixiy va madaniy o'ziga xosligida ko'rganlarning paydo bo'lishi bilan, xuddi klassik davrda bo'lgani kabi, "yangi" yoki "neo-yevrosiyochilik" deb nomlangan ikkinchi yevrosiyochilik harakati paydo bo'ldi. Yangi yevrosiyochilik klassik yevrosiyochilikdan farqli o'laroq, Rossiya ichki va tashqi siyosatini shakllantiruvchi eng muhim g'oyalardan biridir, chunki u klassik yevrosiyochilikdan farqli ravishda rus zaminida tug'ilgan va vaqt o'tishi bilan Rossiya siyosiy qanoti tomonidan qo'llab-quvvatlangan.

Sovet Ittifoqi tomonidan yana oyoqqa turish maqsadida amalga oshirilgan "oshkoraliq", "qayta qurish" deb nomlangan amaliyotlar mamlakatda sotsialistik usulda tuzumni demokratiyaga o'zgartirish va iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan edi. Biroq, vaziyat kutilgandek bo'lindi va Rossianing keyingi iqtisodiy inqiroziga sabab bo'ldi. Amerika tomonidan ataylab uyuştirilayotgani taxmin qilinayotgan ichki tartibsizliklarning boshlanishi bilan jamiyatda inson huquqlari, tenglik,

demokratlashtirish kabi mavzular muhokama qilina boshladi va jamoatchilik bu masalalarni avvalgidan ham kuchliroq talab qila boshladi. [8]

Amalga oshirilmoqchi bo‘lgan barcha g‘arblashtirish harakatlari davlat ichida salbiy oqibatlarga olib keldi. Bu makro ma’noda mamlakat iqtisodiga ham, ma’muriyat barqarorligiga ham putur yetkazdi, shuningdek, alohida ta’kidlash lozimki odamlarning ishonchiga putur yetkazdi. Sovet Ittifoqida yashovchilar endi G‘arb na’munasidagi siyosatni qo‘llab-quvvatlamay qo‘ydilar va bu jarayonga ishonmadilar. O‘z urf-odatlari va tarixiy kelib chiqishiga aloqador siyosiy tuzilmalarini orzu qilgan xalq 1990-yillarda slavyanofilizm bilan “kasallandi”.

Bir muncha vaqt bu Rossiyaning o‘ziga kelishi uchun to‘g‘ri siyosat sifatida ko‘rindi, lekin Rossiya davlat sifatida o‘zini tiklay boshlaganida va yana jahon sahnasida faol kuchga aylanishni rejalashtirganida, slavyanofillik yetarli emasligi ma’lum bo‘lib qoldi. 2000-yillarda Vladimir Putining Rossiya boshqaruvida ta’sirining ortishi va mustahkamlanishi bilan “yangi yevroosiyochilik” Rossiya siyosatiga sezilarli ta’sir ko‘rsata boshladi. Bugungi kunda ham samarali tashqi siyosat vositasi sifatida foydalanilayotgan yangi yevroosiyochilik mafkurasi mustahkam tarixiy va intellektual asoslarga ega. Bu holat uning global siyosatda o‘z kuchini saqlab qolish imkonini beradi.

Yangi yevroosiyochilik klassik yevroosiyochilikdan ko‘ra ko‘proq tarafdarlarga ega. Ruhoniylardan tortib siyosatchilargacha, geosiyosatchilardan tortib millatchilargacha ko‘pchilik “najot - yevroosiyochilikdan keladi”, deb hisoblaydi. Rossiyada faol siyosat olib borgan va borayotgan Aleksandr Rutskoy, Ruslan Hasbulatov, Aleksandr Lebed, Gennadiy Zukanov, Vladimir Jirinovskiy, Andrey Kortunov, Yevgeniy Ambartsumov va Yevgeniy Primakovlar bu g‘oyani qo‘llab-quvvatladilar. [8]

Uzoq vaqt sukut saqlagan “geosiyosat” tushunchasi XX asr oxirida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar bilan yana faol qo‘llanila boshlandi. Mamlakatlar o‘rtasidagi ziddiyatlarning kuchayishi, Amerika boshidan kechirgan iqtisodiy inqirozlar, Yevropa davlatlarining Amerikadan mustaqil ravishda milliy qarorlar qabul qilish tendensiyasi, Eron inqilobi kabi voqealar dunyo o‘rganib qolgan bir qutbli tizimga zid edi. Mayjud mafkuralar o‘zgarishlarni tushuntirib berolmagani bois, yangi izoh zarur edi. Voqealarni izohlashda geosiyosat yaxshi vosita edi va shuning uchun tezda mashhur bo‘ldi.

Geosiyosatning qorong‘u o‘tmishi unutilganligi sababli, yevroosiyochi mutafakkirlar geosiyosiy nazariya sifatida “yangi yevroosiyochilikni” rivojlantirishdan hech qanday muammo ko‘rishmadi. A.Dugin va A.Panarin yevroosiyochilikni nazariya sifatida rivojlantirish va uni geosiyosatning bir qismiga aylantirish bo‘yicha olib borilgan

tadqiqotlarda ko‘zga ko‘ringan nomlar bo‘ldi. Aynan shu nomlar yevrosiyochilikni Rossiya geosiyosiy va geostrategik maqsadlaridan joy egallashini ta’minlaganlardir. [8]

Yangi yevrosiyolik nazariy jihatdan ham, hozirgi siyosatda foydalanish nuqtai nazaridan ham turli yo‘nalishlarda rivojlangan. Yangi yevrosiyochilikni himoya qilayotganlar orasida uning universitetlarda akademik soha sifatida o‘rganilishini istaydigan va o‘z asarlari bilan hozirgi siyosatga qo‘shilishni istamaydigan olimlar ham bor. Ular orasida A.Panarin nazariyaning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan shaxslardan biridir. Biroq, hozirgi siyosatga moslashishga urinib, unga geosiyosiy jihatlarni qo‘sishni maqsad qilganlar ham bor. Bu odamlar orasida A.Dugin siyosatda faol rol o‘ynash imkoniyati, ommani uyuştirish qobiliyati, o‘zi ishlab chiqqan g‘oyalari va siyosiy sektor tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi bilan ajralib turardi. Dugin g‘oyalari bugungi kunda Rossiya tashqi siyosatida olib borilayotgan yevroosiyochilik vektorining muhim qismini tashkil etadi.

Sovet Ittifoqi parchalanib, katta miqdordagi hududiy va iqtisodiy yo‘qotishlarga uchragan davrda paydo bo‘lganligi sababli, yangi yevrosiyochilik mamlakat tashqi siyosatida ko‘proq himoyaviy yondashuvga ega va geosiyosiy manfaatlarga ko‘proq e’tibor qaratadi. Qolaversa, ular klassik yevrosiyochilar kabi o‘z makonidan tashqarida g‘oyalarini saqlab qolishga intilmagani bois Rossiya siyosati haqida yanada faolroq va dolzarbroq fikr bildirishi mumkin.

A.Duginning ta’kidlashicha, Rossiya hech qachon etnik tarkibga yoki millat konsepsiyasiga asoslangan davlat modeliga mansub bo‘lмаган, aksincha, chor va sovet davri misolida ko‘rinib turganidek, sintetik imperiya davlatidir. [9]

Shu nuqtai nazaridan, yangi yevrosiyochilik g‘oyasi Rossiya tashqi siyosat strategiyasiga “Yevrosiyo imperiyasi”ni yaratishni ham taqozo qiladi. A.Duginning fikricha, bu imperiya mintaqaviy kuch yoki milliy o‘zlik bilan chegaralanmasligi kerak, u iqtisodiy jihatdan markazlanmagan, uning ittifoqchilari, turli etnik va diniy tuzilmalari bo‘lishi va bu masalalarda moslashuvchan bo‘lishi kerak. Zarur bo‘lganda bu imperiya iqtisodiy jihatdan moslashuvchan bo‘lishi, kerak bo‘lganda sanksiyalarga moslashuvchan bo‘lgan model belgilanishi, G‘arb ta’siri va spekulasiyalarining oldini ola bilishi kerak. [9] Yevrosiyochilik mafkurasining asosida imperiya tuzilsagina, global tenglik va ko‘p qutbli tizimga erishish mumkin, degan ishonch yotadi.

Yevrosiyochilik mafkurasi Rossiyaning tarixiy, madaniy va geosiyosiy rivojlanish jarayonlarida muhim rol o‘ynagan konseptual yondashuv sifatida shakllangan. Ushbu mafkura o‘zining klassik davrida Rossiyaning o‘ziga xosligi va G‘arbdan farqliliginini

asoslashga qaratilgan bo'lsa, yangi yevrosiyochilik davrida u Sovet Ittifoqining parchalanganidan keyingi siyosiy va iqtisodiy barqarorlikni tiklash vositasiga aylandi.

Klassik yevrosiyochilik madaniy va geografik birlikni ta'kidlab, Rossiyaning tarixiy o'zligiga asoslangan siyosiy va falsafiy qarashlarni ilgari surdi. Bu davrda atama asosan geografik birlikni anglatgan bo'lsa, yangi yevrosiyochilik ushbu hududni yanada kengroq geosiyosiy maqsadlarda qo'llashni taklif qildi. Ayniqsa, Aleksandr Dugin kabi faylasuflar tomonidan rivojlantirilgan bu mafkura G'arbning bir qutbli siyosatiga qarshi ko'p qutbli dunyo tartibotini barpo etishga intilmoqda.

XULOSA

Umuman olganda, yangi yevrosiyochilik Rossiyaning milliy manfaatlarini xalqaro maydonda ilgari surishga yo'naltirilgan, iqtisodiy moslashuvchanlik va madaniy xilma-xillikni o'z ichiga oluvchi radikal mafkura hisoblanadi. Bu mafkura nafaqat Rossiya ichki siyosatida, balki uning global pozitsiyasini mustahkamlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, yevrosiyochilik Rossiyaning geosiyosiy ta'sir doirasini kengaytirish vositasi sifatida tarixiy ildizlariga asoslangan zamonaviy strategiyani shakllantirmoqda.

Yevrosiyochilik mafkurasi Rossiyaning xalqaro siyosiy sahnadagi mavqeini qayta tiklash va geosiyosiy ta'sirini kengaytirishga qaratilgan bo'lsa-da, bu yondashuv bir qator ziddiyat va cheklowlarga ega. Mafkura tarafdarlari uni G'arbning gegemonligiga qarshi mustaqil va pragmatik model sifatida ilgari sursalar-da, uning amaliyoti ko'pincha geosiyosiy ekspansionizm va ichki siyosiy manfaatlarni ustuvor qo'yish sifatida talqin qilinadi.

Yangi yevrosiyochilik, ko'p qutbli dunyo tartibotini barpo etishga qaratilgan degan da'volariga qaramay, u ba'zan Rossiyaning mintaqaviy va xalqaro siyosatida gegemonistik xatti-harakatlarni oqlash vositasi sifatida ishlatiladi. Bu holat mintaqadagi kichik davlatlar uchun xavf tug'dirishi va ular suverenitetiga putur yetkazishi mumkin. Shuningdek, yevrosiyochilikning madaniy va tarixiy birlikka asoslangan ko'rinishi uning ichki ziddiyatlarga boy ekanini ham namoyon qiladi. Geografik va madaniy xilma-xillikni qo'llab-quvvatlagan bo'lsa-da, mafkura ko'pincha rus sentrizmi tamoyiliga suyanadi, bu esa boshqa mintaqaviy xalqlarning o'ziga xosligini cheklashi mumkin.

Ushbu mafkuraning zamonaviy siyosatdagi muvaffaqiyati, avvalo, uning iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan o'zini oqlashi bilan belgilanadi. Biroq iqtisodiy sanksiyalar va global raqobat Rossiyaning ushbu mafkura orqali o'z maqsadlariga erishishini qiyinlashtirishi mumkin.

References:

1. Vügar İmanov. Avrasyacılık: Rusya'nın Kimlik Arayışı, İstanbul, Küre Yayınları, 2008. 45, 47, 50, 88, 89, 92, 96-betlar.
2. Mark Bassin. 'Klasik' ve 'Yeni' Avrasyacılık: Geçmişten Gelen Devamlılık // Bilge Strateji, Çev. Özgür Tüfekçi, 2011, Bahar, 2-jild, 4-son. 125, 126, 128-129-betlar.
3. Marlène Laurelle. Günümüz Avrasyacılığının İki Yüzü: Rus Milliyetçiliğinin İmparatorluk Versiyonu // Turan Dergisi, Çev. Derya Aydın, İstanbul, 2011, 14-son. 33-bet.
4. How the October Revolution is explained in our exhibition? 06 November 2017. <https://historia.europa.eu/en/our-work/news/how-october-revolution-explained-our-exhibition>
5. Refugees // University Libraries. <https://exhibits.lib.unc.edu/exhibits/show/world-on-fire/refugees>
6. M. Bürkan Serbest. Tarihsel Süreçte Rus Avrasyacılığı: Klasik Avrasyacılıktan NeoAvrasyacılığa // MANAS Sosyal Araştırmalar Dergisi, 2017, 6-jild, 3-son, 287-bet.
7. M. Tolga Özsağlam. Geçmişten Günümüze Avrasyacılık, Kıbrıs Yazılıları, 2006, 3-son, 115-bet
8. Y. Kemal Taştan. Ulusal Ülküden Emperyal Vizyona: Rusya'da Kimlik Arayışları // Türk Dünyası İncelemeleri Dergisi, 2012, Yaz, 12/1. 78, 79, 119-betlar
9. Aleksandr Dugin. Rus Jeopoliği: Avrasyacı Yaklaşım, Çev. Vügar İmanov. - İstanbul, Küre Yayınları, 2018. 33-34, 48-49-betlar.
10. Nazirov, M. (2021). Russia, China and the United States in Central Asia: Clash of Interests. *The Scientific Heritage*, (80-5), 38-42.
11. Nazirov, M., & Abdusalomova, D. (2023). Theoretical Approaches to the Balance of the World Political System. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(5), 583-586.